

Otam va bolshevik

Otam (1242 hijriy – 1823 milodiy) yillari Toshkandda tug‘ulib alhol 99-100 yoshlaridadir. Ruslar istilosi vaqtida 42 yoshda bo‘lib Toshkandni ruslardan mudofa qilg‘onqahramonlardan biridir.

Turkiston xonlaridan Sheralixonni undan so‘ng Xudoyorxon, Mallaxon ham bu orada yillab va oylab xonliq qilib o‘tgan Murodxon, Maidsulton va boshqa xonlarni Toshkand beklaridan (hokimlaridan) Muhammadsharif otaliq, Salimsoqbek (bu zot Buxoro amiri tomonidan Toshkand bekligiga qo‘yilg‘on edi. Musulmonqul tomonidan o‘ldurildi.) Azizbek, Normuhammad qushbegi, Shodmon o‘roq, Qanoatshoh Mirzo Ahmad qushbegi, Mallaxon (Mallaxonning og‘asi Xudoyorxonning xonlig‘i vaqtida Toshkandda uch yillab bek bo‘lub turg‘ondir) eng oxirdan Qushdorxavohlarning bekligini ko‘rub o‘tkuzgan, xonliqning bosh noziri va qo‘mondoni o‘rnida bo‘lg‘onlardan Musulmonqul va mulla Alimqullarni ko‘rgan va urushlarida bo‘lg‘on Piskantlik Qoshg‘ar amiri mashhur Yoqubbekni Qoshg‘orga uzatgan. Shunday qilib 40 yillab musulmon xonlari zamoni, 50 yillab rusiya chori istibdodini va endi 5 yillabdirki mehnatkashlar hokimiyatini ko‘rar.

Tabii otam, rusiya chori hukumatini sira ham talamaydir. Chunki uning elli yillik istibdodini o‘zi istiqbol etkan. Chorning achchiq-chuchugini xop totigan: bu kungi mehnatkashlar hokimiyatiga ham uncha do‘st emas. Buning ham sababi ma‘lum. Ammo xon zamonlarini o‘ylagan choqlarida: sayi .. xub zamonlar bor edi: tala jabduqlab otlaru, basavlat beklaru, urdahlarda ham kun qarassa bazmu... utub ketdi. Endi bir zamonlar – deb afsus yeb qo‘yadir.

Chorlar zamoni to‘g‘risig‘a kelganda xox, xoh, xoh! Xo‘b oqpodshoh ekanku.. oqpodshohni hech kim yengolmas emish, oqpodshohga hech bir qironbas kelolmas emish!..kishandas duch kelganda shundoq ham dumini xoda qilar ekanki ... xoh xoh xoh xo..!xoy abd...hali oq podshohni bolshevoy otub yubordi dedigmi?.. barakalla bolshevoyinga, balli bolishinga, qilibtida, oq podshohlikni burnidan chiqaribti... xoh xoh xoh xo!!...

Sho'rolar hukumati to'g'risida ul hech bir tushuna olmaydur Sho'rolar hukumati haqida yuz qat istifos qilib yuz qatlunotadir. Uningcha oq podshohni yengib o'rniga o'lturguchi bolshevik otliq bir qahramon yigitdir:

- Bolshevoyni necha yoshida borikin?

- Bolshevoy bir kishi emas dada.. bolshevikning ma'nosi ko'pchilik kambag'al degan so'zdir. Masalan siz kambag'alsi, siz ham bolshevikdan sanalasiz, hozirgi bolshevik hukumatidan har oy kambag'allar hukumati deyishdir... ilgari oq podshoh hukumati boylardan iborat edi. Ammo bu hukumatning oq podshosi ham yo'qdirva bunda boylarga ham o'rin berilmaydir. Yolg'iz siz va bizga o'xshagan kambag'allar hukumati...

- Ahaaa shunday deginchi...

Oradan yo uch kun o'tadir va yo o'tmaydur. Eski turmush bilan zaharlanib qolg'on cholingiz boyag'i b'armarilngdek qilib ro'molga tugub berilgan tushundirishni unutadurda bolshevikni bir shaxs, kambag'aldan chiqq'on ulug' oq podshoh deb bila boshlaydir:

- Bolshevik jud ham botirboy yigit ekanda, askari ham bir ikki lak borir ?

- Ha besh, olti lak bor!...

- Abba bachataloq o'zi ham hars qopog'on ekan. O'zimizning biroz darmonim yo'g'roqda o'g'lim. Bo'lmasa bolshevikka yigit bo'lub kirar edim. Agar bolshevoyning oldig'a chiqsang mandan salom degin, sani degin, sani boboy duo qildi degin, bachatalog'ingni bechoraparvar deb eshitaman: ko'ynak, ishtonga besh o'n olchin mato so'rasang berarmikin?.. ha bermasa ham go'rga. Ish qilib soliqlardan Darhon qilsa bo'ldi ahammadan ham boqqa ko'z olaytirmasin...

Ba'zan cholingiz istiqlol xohlay boshlaydir:

- Xudoning xohlaganida. Kofirning qo'lida qolub ketdik.. o'zimizda g'ayrat yo'q. Agar yurt bir og'izg'a tupurib yarog' topolmag'onda ham qora kaltak bo'lub chiqsa isni bisga qo'yimas edi. Qadimgi zamonning yigitlaridan shu kunda ham bo'lg'ondachi, ayyuha urushinga yo'l bo'lsin...

- Qora kaltak bo‘lishning nima keragi bor dada: bolshevoyning kattasi o‘zimizning musulmondan, qushbegila, otaliqlarina o‘zimizdan, o‘rtada ulardan bitta yarimta dodvoxlar bo‘lsa bor!..

Bu so‘zni eshtish bilan chol taajjub va tahirda qoladir:

- Nima deding???

- Bolshevoyning ulug‘i o‘zimizning yigitlardan.. chol hozir boshi berk ko‘cha ichida... shu shu holda bir-ikki tamshanib olg‘och yana uzundan uzoq bolshevoyning asli nasli haqida istifsortalab qiladir.....

- Tuzuk-tuzukko‘p yaxshi bolshevik odam ohun ekan. Sarbozdan kel, sarbozdan. O‘zimizdan sarbozlar bormi?

- Bor. Lekin bo‘lsa ham yo‘q xissobida.

- Attangga shunisi chakki bo‘libdi!

- Nima zarari bor dada?

- Ey o‘g‘lim odam bo‘lg‘ondan keyin har narsaning ham boshida bo‘lish kerak. “non qo‘ynimda, et kinimda!..”

Shunday qilib otam bolshevikga yigit bo‘lmoqchiya, biroq biroz darmoni yo‘qroqda... ehtimolki bahorga chiqib darmoni yaxshilanur, sochlari qorayib boshqa o‘g‘lon tishlari chiqub bo‘lsa ham lekin hozirgi endigina milk yorub kelmakda bulg‘on ikkita jag‘ tishlari ham chiqub bo‘lurda cholni bolshevoy ham yigitga qabul qilib va ul bolshevoyga chin “sarboz” bo‘lur...

O‘g‘li: Jo‘lqinboy.

Inqilob. 1922. 7-8-son. 68-69-betlar.